

**YOSH MUTAXASSISLARNING TA'LIM MUASSASASIGA PSIXOLOGIK
MOSLASHUVI**

Orifjonova Nazokat Maribjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya: ushbu maqolada ta`lim sifatini oshirish jarayonida pedagogning ushbu jarayonga pedagogik va psixologik moslashuvchanligi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: ehtiyoj, moslashuvchanlik, tajriba, ijtimoiy ehtiyoj, pedagogik moslashish.

KIRISH

Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o`z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlar emas, balki ongli harakatlardir. Bu onglilik shundan iboratki, odam oldindan biron-bir maqsadni ko`zlab harakat qiladi, shu maqsadga yetishish uchun yordam bera oladigan vositali yo`l va usullarni oldindan qidirib topadi, to`sqinlik va qiyinchiliklarni yengish uchun ongli ravishda kuch-g`ayratini ishlata soladi. Jumladan talabalarda ham bosqichma bosqich asta sekinlik bilan jarayonlarga, pedagogik faoliyatga moslashish holatlari kuzatiladi Inson turli vaziyatlarga moslashish jarayonida albatta stress holoatlariga ham duch keladi. Organizmni stressga qarshi kurashish yoki qochish vaqtida yurak urishi tezlashadi, qon aylanishi buziladi ya`ni maqsadga intilish uchun tayorgarlik ko`rishda organizmda qochish va kurashish kechadi. Bu reaksiyani organizmni moslashish tizimi deb ataladi.

MUHOKAMA

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o`quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir bo`lajak pedagog-o`qituvchi o`z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik maxoratini rivojlantirib borishini talab etadi. Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o`z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlar emas, balki ongli harakatlardir. Bu onglilik shundan iboratki, odam oldindan biron-bir maqsadni ko`zlab harakat qiladi, shu maqsadga yetishish uchun yordam bera oladigan vositali yo`l va usullarni oldindan qidirib topadi, to`sqinlik va qiyinchiliklarni yengish uchun ongli ravishda kuch-g`ayratini ishlata soladi. Jumladan talabalarda ham bosqichma bosqich asta sekinlik bilan jarayonlarga, pedagogik faoliyatga moslashish holatlari kuzatiladi Inson turli vaziyatlarga moslashish jarayonida albatta stress holoatlariga ham duch keladi. Organizmni stressga qarshi kurashish yoki qochish vaqtida yurak urishi tezlashadi, qon

aylanishi buziladi ya'ni maqsadga intilish uchun tayorgarlik ko'rishda organizmda qochish va kurashish kechadi. Bu reaksiyani organizmni moslashish tizimi deb ataladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir bo'lajak pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik maxoratini rivojlantirib borishini talab etadi.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustaxkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan talabalarini pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim. Demak, hozirgi bo'lajak zamonaviy pedagog har qanday vaziyatlarda ham o'zini vaziyatlarga va yangi faoliyat jarayonlarga moslashtira olishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi talab etiladi. Chunki shiddat bilan kechayotgan jaxon miqyosidagi o'zgarishlar oldida pedagog yangi ma'lumotlardan ortda qolishi mumkin emas. Ayniqsa o'z o'quvchilaridan oldinroqda qadam bosmas ekan u judayam tezlik bilan o'z obro'sini tushirib qo'yishi va bu orqali bolani ta'limga bo'lgan ishtiyoqini ham susaytirib qo'yishi mumkin.

Talabalarda pedagogik va psixologik moslashuvchanlikni yanada oshirish maqsadida Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomidan turli tuman baxs-munozarali amaliy va ma'ruza darslari tashkillashtirilib kelinadi. Bunday munozara - o'yinlarning asosiy maqsadi: bo'lajak mutaxassislarni (masalan tadqiqotchilarni yoki talabalarni) muayyan ijtimoiy jamiyatdagi vaziyatlar, ta'lim va ishlab chiqarish mutaxassislari, talabalarni yozma va og'zaki ma'ruzalarini yoki mulohazalarini taqdim qilish asosida olib borilayotgan ilmiy - tadqiqot ishlarining mohiyati, mazmuni va borishi haqida axborot almashishga o'rgatish; bo'lajak mutaxassislarga o'z nuqtai nazari, o'z qarashlarini isbotlash va himoya qila olish mahoratini shakllantirish, o'zgalar bildirgan g'oyalarining mohiyatiga kirib borish, ta'lim jarayonidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining muayyan bosqichlari bo'yicha qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini barpo etishdan iborat. Munozara - o'yinlar bo'lajak mutaxassislarda, ilmiy ishlab chiqarish muammolarini qo'yish va uni hal qilishga qiziqishni, tadqiqot ishlariga holisona (turli nuqtai nazarlarni qabul qila olish mahorati) yondashishni tarbiyalaydi: talabalarda muammoni qo'yish, uning borishi va echimi natijalarini muhokamasida, haqiqiy munozaralar va ilmiy - amaliy anjumanlar va ularda muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha qarashlar, g'oyalar, bilimlar va tajribalarni erkin almashtirishda o'zini muayyan ko'nikmalarini hosil qiladi. Talabalarni ijodiy faoliyatdagi omillari.

Talabalarning faol mustakil ishlari faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Bunday eng jiddiy omil - kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Talabalarni mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillarni ko'rib chiqaylik:

1. Qilinayotgan ishning foydaliligi. Agar talaba o'z ish natijalarining ma'ruza jarayonida, metodik qo'llanmada, laboratoriya ishida yoki amaliy mashg'ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga bo'lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o'zgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. SHunga ko'ra, talabani ruhan shu ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko'rsatib berilishi kerak.

2. Talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar.

3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlaridap ishtirok etish v.b.

4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan'anaviy imtihon shakllari v.b.) Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi.

Mana shu holatning o'zi talabada o'z ustida ishlashni, o'zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi. Ijodiy. Jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlari. TMI nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Ular:

- O'rganilayotgan fanning alohida boblariga oid berilgan mavzu bo'yicha referat, ma'ruza va yozma ishlar. Talabaga mavzu, hatto rahbarni ham tanlash huquqini berish maqsadga muvofiq bo'ladi;

- Tanlangan fan bo'yicha illyustrativ materiallarni tayyorlash, bunda mavzu o'qituvchi tomonidan beriladi, unig mazmuni va shakli, ijrosi talaba tomonidan belgilanadi;

- Xajmi, murakkabligi, mazmuni talabaning o'zi tomonidan shallantiriladigan mazmuni talabaning o'zi tomonidan shallantiriladigan ilmiy krassvordlar tuzish;

- Zamonaviy olimning ilmiy monografiyasiga, yozuvchining asariga asosiy g'oya va qoidalarni ajratgan xolda o'z shaxsiy asoslangan bahosi hamda foydalanishga tavsiyasi ko'rsatilgan taqriz yozish;

- Xilma-xil xarakterdagi uy vazifalarni bajarish. Bunga mashq va maslallarni echish, matnni tarjima qilish yoki qayta hikoyalash, adabiy yoki ilmiy manbalarni tanlash va o'rganish, turli jadvallarni tuzish, grafik ishlarni bajarish, turli hisobkitoblarni amalga oshirish v.b kiradi;

- Talabadagi tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan individual topshiriqlarni bajarish. Alohida topshiriqlarni har bitta talaba yoki talabalarning bir qismi olishi mumkin;

- Kurs ishlari.Bitiruv malakaviy ishlarini bajarish;

- Ilmiy-nazariy yoki ilmiy - amaliy anjumanlar, ko‘rik-tanlovlar, olimpiadalarga tayyorgarlik;

-Tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy insho yozish.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yosh mutaxassislar uchun ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarni yaratish ularni rag'batlantirishning zarur va muhim shartidir. Biroq, eng asosiysi, maktabgacha ta'lim tashkilotining butun jamoasi birgalikda harakat qilsa, yosh pedagoglarni mehnat faoliyatiga jalb qilish muammosi hal bo'ladi.Shunday qilib, kasbiy mahoratni rivojlantirish, adaptatsiya jaayonidan muvaffaqiyatli o'tish jarayoni mohirona ilmiy va uslubiy yordamga muhtoj. Moslashuv jarayonining muvaffaqiyati uchun quyidagi shartlar zarur:

-pedagogik xodimlarning qulay ijtimoiy-psixologik muhiti;

-yosh mutaxassisning ehtiyojlari va muammolariga e'tibor berish,

- yangi pedagogni obektiv rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilarga birinchi oylarda ma'ruza o'qishning, pand-nasihatning hojati yo'q, ular faqat amaliy maslahatlarga muhtoj. Bitiruvchining yangi ishga kelganligini hisobga olib, u bilan tashkil etiladigan metodik ish yosh mutaxassisning kasbiy o'zini o'zi anglashi uchun zarur bo'lgan vakolatlarni shakllantiruvchi quyidagi yo'nalishlarda quriladi:

- fan kompetensiyasi;

- psixologik kompetentsiya;

- pedagogik kompetentsiya;

- uslubiy kompetentsiya;

- innovatsiyalarga tayyorlik;

• umummadaniy va hissiy-axloqiy kompetentsiya.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini barcha bosqichlarini isloh qilishning zamonaviy sharoitida yosh o'qituvchining pedagogik faoliyatga imkon qadar tezroq moslashishi alohida ahamiyatga ega.Yosh o'qituvchining shaxsiy va kasbiy moslashuvi uzoq va qiyin bo'lishi mumkin. Sabr-toqat, hamdardlik, xushmuomalalik, yosh mutaxassisning rivojlanishi uchun psixologik qulay shart-sharoitlarni yaratish qobiliyati, shuningdek, u bilan maqsadli ishlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular kasbga o'z vaqtida adaptatsiyasiga yordam beradi, qiyinchiliklarni engib, o'z kasbiga moslashishga yordam beradi, o'z sohasining haqiqiy professional darajasiga ko'tarilishiga asos bo'ladi.Kasbiy moslashish va

malaka oshirish jarayonini malakali boshqarish nafaqat yosh mutaxassisga yordam beradi, balki u ishlayotgan ta'lim muassasasining rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat .Psixokorreksiya.T.:—Ijod press nashriyoti. 2019-yil.
2. Маҳкамов, У., Жуманова, Ф., & Равшанов, Ж. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШГА ТАЙЁРЛАШ. *Academic research in educational sciences*, (3), 815-830.
3. Akramova, D. (2022). BO'LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
4. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
5. Nurbaeva, I. T. (2022, November). MODELS OF PEDAGOGICAL COMMUNICATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 88-95).
6. "Pedagogika va psixologiya" X.J.Xudoyqulov-T.:Dizayn-Press.2011y
7. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari T.: 2005
8. Xaydarov F.I.,Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi T.: Fan va texnologiyalar 2007.